

**TA'LIM SOHASIDA PEDAGOG KASBIY MADANIYATINING
DOLZARBLIGI**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va

amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Raximova Nuquljon Yusupovna

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-bosqich

*talabasi **Ne'matova Nodira Avaz qizi***

nodiranematova@gmail.com

Annotatsiya: Globallashuv davrida ta'lim sohasida pedagog kasbiy madaniyatining qanchalik katta muhim ahamiyatga ega ekanligini ochib berish.

Kalit so'zlar: kasbiy madaniyat, Yangi O'zbekiston, ta'lim va tarbiya globallashuv, ko'nikma, malaka, pedagog.

Kirish

Ta'lim insoniyat taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Kundan kunga rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonimizning ta'lim sohasida ham juda ko'p o'zgarishlar yuz bermoqda. Yangi asrda jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi, bevosita ta'lim va tarbiyaning rivojlanishi, mazmunan takomillashib borishiga bog'liq. Ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi barkamol, yetuk shaxs, malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shunday ekan har bir pedagog muallim o'zining kasbiy madaniyati orqali ta'lim tarbiya samaradorligini o'quvchilarning qay darajada bilim, ko'nikma va malakaga ega ekanliklarini, mustaqil bilim olishga, jamiyatda o'z o'rinlarini topish uchun qanday tayyorgarlikga ega ekanliklari bilan o'lchashlari, baho berishlari lozim.

Asosiy qism

Hozirgi globallashuv davrida fan-texnika rivojlanishi ta'lim sohasida olib boriladigan katta islohotlar ta'lim- tarbiyaning mazmunini o'zgartirishni, shuningdek, ta'lim tizimini bugungi zamon talablari asosida boshqarishni talab



etmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o'tkazgan videosektor murojaatnomasida: "Mamlakatimizda ilm fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash bizning eng oliy maqsadimiz. Ta'lim - tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot – mamot masalasi. Shu bois bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Har bir rahbar o'z ish uslubini o'zgartirsa, maktabda, qishloqda, mahallada o'zgarish bo'lsa, davlat ham rivojlanadi", - deb ta'kidlaganlar.[1]

Ta'lim-tarbiya birligi va axloq masalalariga yetuk tarbiyashunos olim sifatida yondashgan olim Abu Rayhon Beruniy o'zining pedagogika va psixologiyaga oid qimmatli fikr-mulohazalarini va ma'rifiy-didaktik qarashlarini bayon etib, ilm hamda ma'rifat sari intiluvchi tolib va muallimlarga deydiki: "Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan nafs va turli buzg'unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor".[2]

Pedagog bu - yuksak madaniyatli mutaxassis, o'z fanini chuqur o'zlashtirgan, ta'lim-tarbiya metodikasini mukammal biluvchidir. Pedagogikaning kasbnomasida pedagogik tajriba, pedagogik texnologiya, kabi tushunchalar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'quvchi- yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirish, tafakkur kengligini rivojlantirish ham pedagogning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.[3]

Pedagog, avvalo, nima uchun bu kasbni tanlaganini teran anglamog'i, insonlarni qanday tarbiyalash kerakligini tushunib yetmog'i kerak. Bu esa pedagogik faoliyat va etiketning asosiy omilidir. Bolaning ichki dunyosiga kira bilish, ishongan do'sti bo'lish, uni ezgulikka yo'naltirish, jamiyatga foydali inson etib voyaga yetkazish, unda mas'uliyat hissini shakllantirish – pedagogikaning bosh tamoyilidir.[4] Pedagog mahoratining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbi to'g'risida mukammal ma'lumot va tushunchalarga ega ekanligidadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ham ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. "Muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so'zi, axloqu-



odobidandir-degan edi taniqli murabbiy, maktabshunos olim Hikmatilla Abdullayev o'zining "Yashil daftar hikmati" asarida." O'qituvchining yuz qarashlari ham, gapirishlari ham, qalbi ham, ko'rinishi ham, yurish- turishi ham,kiyinishi ham, chiroyli va ibrat namunasi bo'lsin.Ayniqsa uning nutqi tushunarli, ravon, ta'sirli bo'lishi darkor.U muloqotda bamisoli so'z zargari ekanligini ko'rsata olishi muhimdir.Shunga erishish kerakki,odamlar, ayniqsa, ota- onalar va o'qituvchilar uni rostgo'y,halol,pokiza, sog'lom fikrli,shafqatli va muruvvatli, insonparvar kishi sifatida e'tirof etsinlar".

Kasbiy madaniyat – insonning olgan bilim va tajribasiga asoslangan malakali harakatlar yoki mehnat faoliyatining mahsulidan bunyod bo'lgan narsalar, o'zgalarda zavq uyg'ota oladigan ijtimoiy hodisa. Shaxsning kasbiy madaniyati bilim, malaka, ko'nikma, qobiliyat, axloqiy va estetik rivojlanish, dunyoqarash, odamlar bilan o'zaro muloqotining usul va shakllari, iste'dodining rivojlanish darajasi kabi faoliyatda amalga oshiriladigan insoniy kuch va salohiyatni o'z ichiga oladi. Kasbiy madaniyat insonning mehnat faoliyatida namoyon bo'ladi. [5]

Xulosa

Xulosa qilib shuni ta'kidlamoqchimanki, har bir pedagog barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'- e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Buning uchu pedagog umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lishi ham muhim rol o'ynaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish pedagogning malakasini va jamiyatda nufuzini oshirish, yosh-avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. 2022-yil 8- yanvar.
2. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat (Ibratli so'zlar) Toshkent: Fan, 1993.-248 b
3. V. Karimova. Pedagogika. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2008-yil.
4. <https://oyina.uz>
5. <https://oyina.uz>